



UDK: 373.3.091.3:811.512.133

Xosiyat NAVRUZOVA,  
ToshDO'TAU tayanch doktranti  
E-mail: navruzovaxosiyat363@gmail.com

*Pedagogika fanlari doktrori, professor K.Mavlonova taqrizi asosida*

## THE ROLE OF LINGUISTIC KNOWLEDGE IN 6TH GRADE STUDENTS' COMPREHENSION OF LITERARY TEXTS

Annotation

Linguistic knowledge plays a crucial role in deep comprehension of texts, analysis of semantic connections, and the development of students' thinking skills. This article analyzes the impact of linguistic competence on the assimilation of literary texts based on an experiment conducted among 6th-grade students. A passage from G'afur G'ulom's story "Shum Bola" was selected for the study. Based on this text, students were given questions aimed at assessing their understanding of referential pronouns, antonyms, coordinated sentence parts, implied meanings and insertions. At the end of the experiment, the written responses of 29 students were analyzed, and the percentage of correct answers was calculated for each task. The results showed that insufficient understanding of certain linguistic elements caused difficulties in grasping specific aspects of the text. The study confirms the direct correlation between the level of linguistic knowledge and reading comprehension.

**Key words:** Literary text, reading comprehension, linguistic knowledge, 6th grade, Q&A, pronoun, antonym, coordinated parts.

## РОЛЬ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ПОНИМАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ УЧАЩИМИСЯ 6-ГО КЛАССА

Аннотация

Лингвистические знания играют важную роль в глубоком понимании текста, анализе смысловых связей и развитии мышления учащихся. В данной статье рассматривается влияние лингвистической компетенции на усвоение художественного текста на основе эксперимента, проведенного среди учеников 6 класса. Для исследования был выбран отрывок из произведения Гафура Гулома «Шум бола». На основе этого текста ученикам были предложены вопросы, направленные на понимание указательных местоимений, антонимов, однородных членов предложения, подтекста и вводных слов. По завершении эксперимента были проанализированы письменные ответы 29 учащихся, при этом по каждому заданию был рассчитан процент правильных ответов. Полученные результаты показали, что недостаточное понимание ряда языковых единиц затрудняет осмысление отдельных аспектов текста. Результаты исследования подтверждают прямую связь между уровнем лингвистических знаний и навыками понимания прочитанного.

**Ключевые слова:** Художественный текст, понимание прочитанного, лингвистические знания, 6 класс, вопрос-ответ, местоимение, антоним, однородные члены.

## 6-SINF O'QUVCHILARINING BADIY MATNNI TUSHUNISHIDA LINGVISTIK BILIMLARNING TA'SIRI

Annotatsiya

Matni chuqur anglash, mazmuniy bog'lanishlarni tahlil qilish va o'quvchi tafakkurini rivojlantirish uchun lingvistik bilim muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada 6-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tajriba asosida badiiy matnni o'zlashtirish jarayonida lingvistik bilimlarning ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun G'afur G'ulomning "Shum bola" asaridan parcha tanlab olingan bo'lib, ushbu matn asosida o'quvchilarga olmosh ishora qilgan ma'noni tushunish, antonim so'zlar, uyushiq bo'laklar, tag ma'no, kiritmalarni tushunishga qaratilgan savollar berildi. Tajriba yakunida 29 nafar o'quvchining yozma javoblari tahlil qilinib, har bir topshiriq bo'yicha to'g'ri javoblar foiz ko'rinishida hisoblandi. Olingan natijalar o'quvchilarning ayrim til birliklarini chuqur anglamagani matnning muayyan qirralarini tushunishda qiyinchilik tug'dirayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari o'quvchining lingvistik bilim darajasi bilan matnni anglash o'rtasidagi bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** Badiiy matn, o'qib tushunish, lingvistik bilim, 6-sinf, savol-javob, olmosh, antonim, uyushiq bo'lak.

**Kirish.** Matni to'g'ri va chuqur anglash zamirida o'quvchining lingvistik bilim darajasi muhim o'rin tutadi. O'qib tushunish jarayoni nafaqat leksik birliklarni idrok etish, balki grammatik va sintaktik elementlarni to'g'ri talqin qilishga asoslanadi. Ayniqsa, badiiy matnlar turli ma'no qatlamlari, majoziy ifodalar va matn mazmuniga bog'liq tildan foydalanilishi bilan boshqa matnlardan farq qiladi. Ularni tushunish uchun o'quvchidan faqat so'z boyligi emas, balki til birliklarining qanday vazifa bajarishini bilishi talab qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish masalasi ko'plab tadqiqotchi va amaliyotchi o'qituvchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, K. Mavlonova [2], I. Azimova [1], F.

Sharopova [8], N. Hakimova [4] D. Normuminovlarning [3] ilmiy izlanishlarida o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati, bu jarayonning ta'lim samaradorligidagi o'rni, shuningdek, o'quvchining tafakkurini shakllantirishdagi didaktik va metodik jihatlari keng yoritilgan. Mavjud tadqiqot ishlarida asosan o'qib tushunish ko'nikmasining ona tili ta'limidagi ahamiyati, uni shakllantirish, o'qish jarayonida matn bilan ishlash usullari tahlil qilingan bo'lib, lingvistik bilimning o'qib tushunishga qanchalik ta'sir etishi maxsus o'rganilmagan muammo sifatida qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda lingvistik bilimlarning o'quvchilar matni anglashiga ta'sirini aniqlash

maqsadida tajriba-sinov usulidan foydalanildi. Tajriba Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi 9-sonli umumta'lim maktabining 6-“A” sinfining 29 nafar o'quvchisi bilan o'tkazildi. Tajriba materiali sifatida G.G'ulomning “Shum bola” [7] asaridan parcha tanlandi. Matn asosida quyidagi parametrlar belgilandi:

Olmosh ishora qilgan ma'noni tushunish.

So'zning antonimini topish

Uyushiq bo'laklarni topa olish.

Tag ma'noni tushunish.

Kiritma orqali ifodalangan ma'lumotni tushunish.

So'zning ma'nosini tushunish.

Har qanday til birligi bo'yicha bir nechta savol ishlab chiqilib, ishtirokchilardan yozma shaklda topshiriqni bajarish

Maktab	Topshiriq	Misollar soni	To'g'ri	Xato
Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 9-maktab 6-“A” 29 ta o'quvchi	1	1	8	21
	2	1	10	19
	3	1	10	19
	4	1	18	11
	5	1	14	15
	6	1	5	24

1. Unda dunyodagi hamma narsa bor. Unda olmoshi o'rnida qo'llangan jumlaning topib yozing. O'quvchilarning 28 foizi to'g'ri javob yoza olgan. ...bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor. O'quvchi olmosh so'z turkumining qaysi so'zga ishora qilayotganini bilish uchun oldingi gapni o'qib tushunishi kerak, lekin tajriba ishtirokchilarining ko'pi “unda” olmoshining matndagi aniq ishorasini aniqlay olmagan. Noto'g'ri javoblar tahliliga ko'ra, ular olmoshni “dunyo”, “hovli”, “qushxona” kabi umumiy yoki yaqin atrofdagi so'zlarga bog'lagan. Ying-jing Zhao tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko'rsatish olmoshlari bolaning til o'zlashtirilishidagi dastlabki birliklaridan biri sifatida qayd etiladi. Tadqiqotga ko'ra, bola bu turdagi olmoshlarni avval vizual, jismoniy harakatlar (imo-ishora, ko'z qarashi, tovushli urg'u) asosida tushunadi. Bola “unda” degan birlikni eshitganda yoki ko'rganda biror vizual yoki jismoniy ishora bilan bog'liq reaksiya kutadi [6]. Ko'rsatish olmoshlarini tushunish kontekstga bog'liq bo'lgan hodisa bo'lib, o'quvchilarning ushbu birlikni yozma matnda izchil talqin qila

so'raldi. Javoblar mazmuniy jihatdan to'g'ri va xato deb tasniflanib, foiz ko'rinishida tahlil qilindi. Natijalar bo'yicha statistik taqqoslashlar orqali o'quvchilarning qaysi til birliklarini anglashda qiynalayotgani va bu holat matni tushunishga qanday ta'sir qilayotganini aniqlashga harakat qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotning ushbu qismida tajriba-sinov ishlaridan olingan ma'lumotlar bosqichma-bosqich tahlil qilinib, har bir parameter bo'yicha o'quvchilarning natijalari keltiriladi. Tahlil jarayonida to'g'ri va xato javoblar taqsimoti ko'rib chiqiladi, shuningdek lingvistik bilimning o'qib tushunishga bevosita ta'siri aniqlanadi.

olishi uchun o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda lingvistik birliklar bilan izchil ishlash zarur.

“Yig'inchoq” so'ziga zid ma'noli kelgan so'zni topib yozing. Savol so'zlararo zidlikni matn mazmunidan kelib chiqib aniqlashga qaratilgan. ...Bola-chaqalari bo'lmaganidan, uylari biznikiga o'xshab bozor emas – yig'inchoq. Bu yerda “bozor” so'zi “tartibsizlik”, “sershovqinlik” ma'nolari bilan “yig'inchoq” so'ziga mazmuniy qarama-qarshilikni yuzaga chiqargan. Demak, so'ralgan zid ma'noli so'zlar juftligi “bozor – yig'inchoq” bo'lib, u lug'aviy antonim (katta-kichik, baland-past) emas, balki mazmuniy qarama qarshi so'zlardir. Matn tarkibida zidlikni kuchaytiruvchi “emas” to'liqsiz fe'li va tire ishlatilgan. Xato javob yozgan o'quvchilar lug'aviy juftlikka tayanishgan, qarama-qarshilikni kuchaytirgan elementlarga e'tibor berishmagan. Shu sababdan matn bilan ishlash jarayonida kontekstual antonimiya bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi so'zlarni jadvalga joylashtiring.

Mushuk, dakangxo'roz, qarchig'ay, gulbeor, mayna, kaklik, sambitgul, qumri, ko'ppak, qirg'iy.

Ov qushlar	Urishadigan qushlar	Sayraydigan qushlar	Gullar	Boshqa

Matn tarkibida quyidagi parcha mavjud.

Ovga kirishadigan sohibchangan qushlardan – qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan – dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrashi uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi).

Sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar. Bulardan tashqari, faqat uyning ziynati uchun boqiladigan bitta ov tozisi, bitta ko'ppak, bitta laycha kuchuk, besh-oltita bolalari bilan ko'ppak, bitta Buxoro baroq mushugi bor edi.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulra'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul – ishqilib, sanab tugatib bo'lmaydi.

Ushbu savol o'quvchining leksik va sintaktik bilimlarini birgalikda tekshiradi. Ishtirokchilarning 34 foizi to'g'ri javob yoza olgan. O'quvchi har bir so'zning ma'nosini tushunishi, ularni mazmuniy umumiylik asosida guruhlashi, uyushiq bo'laklar orasidagi sintaktik munosabatni tushuna

olishi, tinish belgilari ifodalayotgan ma'noni anglashi kerak. Agar o'quvchi uyushiq bo'laklardagi ma'noni anglamasa, matn mazmunini to'liq tushuna olmaydi.

Shum bolaning otasi vafot etganini qaysi jumla orqali bilish mumkin? Bu savol o'quvchidan matndagi bevosita aytilmagan, lekin bilvosita bayon etilgan ma'lumotni anglashni talab qiladi. Matnda bu fikr quyidagi jumla orqali ifodalangan.

...Ammam bilan pochcham meni erkalab qarshi oldilar:

– Kel-a, bo'yingdan girgittan bo'lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, – dedi ammam.

Bu yerda “akam tirilib keldimi” degan ifoda orqali bolaning otasi allaqachon vafot etgan degan fikr ilgari suriladi. Tag ma'noni tushunish bilvosita ma'no chiqarish asosidagi ko'nikma bo'lib, o'quvchidan nafaqat matni so'zma-so'z o'qishni, balki nutq egasining niyatini tahlil qilishni ham talab qiladi. Bu ko'nikma o'quvchining matni chuqur anglashiga yordam beradi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, 6-sinf o'quvchilarining yarmidan ko'pi tag ma'noni anglay olgan,

shunga qaramay qolgan ishtirokchilar uchun bilvosita mazmunni anglashni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ishlash samarali yo'l hisoblanadi.

5. Dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'rozning kaklik va bedanadan farqini yozing. Matnda bu fikr quyidagicha ifodalangan:

...urishadigan qushlardan – dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrashi uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi). Kiritma qurilma asosiy gap bilan grammatik bog'lanmasa-da, mazmunan undan anglashilgan voqea-hodisaning sababini bildirib, mazmunan qo'shma gapda bo'lgani kabi izohlash vazifasini o'tamoqda[5]. Bu savol o'quvchidan kiritma orqali berilgan qo'shimcha ma'lumotni asosiy gapdan ajratish va ma'lumot asosida tahliliy fikr yuritish ko'nikmasini talab qiladi. Kiritma qurilmalarni ajrata olish, tinish belgilarning vazifasini tushunish uchun lingvistik ko'nikma muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning 52 foizi savolga javob bera olmagan 6-sinf o'quvchilari uchun kiritma gaplarga oid mashq va topshiriqlar ishlab chiqish kerakligini ko'rsatadi.

6. Nima uchun pochchasi ko'ppakni emas tozini, boshqa qushlarni emas aynan qarchig'ayni o'zi bilan dalaga olib chiqdi?

Bu savol so'z ma'nosini tushunish parametriga kiradi. O'quvchilardan oddiy fakti emas, balki so'zning kontekstual qo'llanishini tushunish talab qilinadi. "Ko'ppak" bilan "tozi"ning farqi yoki "qarchig'ay"ning boshqa qushlardan ajralib turuvchi ovchilik xususiyati o'quvchilar uchun kundalik tajribada kam uchraydigan, leksik jihatdan maxsus bilimni talab qiluvchi birlikdir. O'quvchilarning xatolari, asosan, tozi va ko'ppak o'rtasidagi farqni bilmaslik, shuningdek, qarchig'ayning o'lja tutishdagi xususiyatidan bexabar bo'lish bilan bog'liq. Bu yerda lug'aviy bilim emas, balki faol ishlatishga kam kiradigan so'zlarning ma'nosini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishtirokchilarning 17 foizigina to'g'ri javob topa olgani shuni ko'rsatadiki, 6-sinf o'quvchilarida bunday ko'nikma hali yetarlicha shakllanmagan. Demak, lug'at boyligini kengaytirish va ularni hayotiy voqealar bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Matnni to'liq tushunish faqat so'z boyligiga emas, o'quvchilarning lingvistik bilimlariga ham bog'liq. Tadqiqot natijalari 6-sinf o'quvchilari uchun matnni anglashda lingvistik birliklarni izchil o'rganish va amaliy mashqlar orqali mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki matnni chuqur o'zlashtirishga, o'quvchilarning tahliliy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.
2. Mavlonova K. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020.
3. Normuminova D. O'qish savodxonligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. "Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami. 2022.
4. Hakimova N. O'qib tushunish malakasini shakllantirishga oid yondashuv va tamoyillar. Ona tili ta'limida o'qitish va baholash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 31–33.
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B. R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q., Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., "Fan va texnologiya", 2009, – B. 380.
6. Yi-jing Zhao. Children's Acquisition of Demonstrative Pronouns in Mandarin Chinese. National Taiwan Normal University, Linguistic Program – Taiwan, 2007. – B. 532–541.
7. G'afur G'ulom. Shum bola. Qissalar va hikoyalar.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2016. – B. 59–60.
8. Sharopova F. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari. Ped. fan. bo'yicha fals. dok...ri (PhD) diss. 2025 – 134 b.